

**AHMAD LUTFIY QOZONCHINING “O‘GAY ONA” ROMANI
XUSUSIDA BADIY Tahlil**

Madamiova Mohinabonu Ma’rufjon qizi
O‘ZDJTU 3-fakulteti 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: ushbu maqolada Ahmad Lutfiy Qozonchining qalamiga mansub “O‘gay ona” nomli asari badiiy tahlil qilinib, uning syujeti, asosiy mavzulari, obrazlar tizimi o‘rganilgan. Asarda oilaviy munosabatlar, tarbiya masalalari va mehr-muhabbatning inson hayotiga ta’siri yoritilgan. Muallifning realizmga asoslangan uslubi roman voqealarining hayotiylikini ta’minlasa-da, obrazlarning psixologik tahlili nisbatan soddaligi bilan ajralib turadi.

KALIT SO‘ZLAR: adabiyot, diniy-tarbiyaviy, Fotima, ikki farzandli, o‘gay ona, kompozitsion syujet

KIRISH

Adabiyot – inson tafakkuri va ma’naviyatining mahsuli bo‘lib, u hayot haqiqatlarini badiiy obrazlar orqali aks ettiradi. U inson ruhiyatiga ta’sir etish, uni tarbiyalash, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va jamiyat hayotini yoritish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Adabiyotning asosiy maqsadi faqatgina voqealarni bayon qilish emas, balki o‘quvchini o‘ylashga, tahlil qilishga va hayotga teranroq qarashga undashdan iboratdir. Har bir xalqning adabiyoti uning tarixi, madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda insoniy munosabatlar, ijtimoiy muammolar va ma’naviy qadriyatlar aks etadi.

Ahmad Lutfiy Qozonchi turk adabiyotining taniqli vakillaridan biri bo‘lib, uning O‘gay ona romani oilaviy munosabatlar mavzusiga bag‘ishlangan. Asar syujeti oddiy va hayotiy bo‘lib, o‘gay ona va bola o‘rtasidagi munosabatlar, tarbiya masalalari hamda ijtimoiy hayotdagi ba’zi muammolarni yoritadi. Muallif oilaviy muhitning inson hayotiga ta’sirini ko‘rsatishga harakat qilgan bo‘lsa-da, asarda dramatik sahnalar yoki chuqur ruhiy kechinmalar unchalik kuchli aks etmagan.

METOLOGIYA

Ushbu maqolada O‘gay ona romanining badiiy tahlili quyidagi adabiy-tahliliy metodlar asosida amalga oshiriladi: Strukturaviy tahlil – asarning syujeti,

kompozitsion tuzilishi va obrazlar tizimi o'rganiladi. Bunda voqealar rivoji, qahramonlarning xarakteri va ularning o'zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Tematik tahlil – asarning asosiy mavzusi va g'oyalari aniqlanadi. Romanda ko'tarilgan muammolar, oilaviy munosabatlar, mehr va adolatsizlik, bolalik ruhiyati kabi jihatlar tadqiq etiladi. Bundan tashqari badiiy asar tahlili bo'yicha Ko'chimov U. ,To'xta Boboyev, Izzat Sulton olimlarning adabiyotshunoslikka doir ilmiy adabiyotlaridan foydalanildi.

NATIJA

Adabiyot – inson ruhining bir oynasi. Odam qismati ba'zan shu qadar murakkab, shu darajada ziddiyatli bo'ladiki, uning tub mohiyati va ichki bog'lanishlarini faqat adabiyot suvratlantirib ko'rsatishi mumkin. his-tuyg'u, kayfiyat, ehtiros, aslini olganda o'tkinchi, ya'ni bahosiz narsa. Ammo ular adabiyotdan joy egallaganda, har biri odam ma'naviy-ruhiy olamining tirik bir “tilmoch”iga aylanadi [2/95]. „Adabiyot" atamasi (arabcha — adab) „odob" so'zidan olingan. Odob-axloq jamiyat ma'naviyatining o'zagi, inson kamoloti (insoniyligi)ning ko'rsatkichidir . Anashu kabi o'ziga xos bo'lgan insoniy fazilatlarni diniy mushohada bilan o'z asarlariga jo eta olgan mashhur turk yozuvchilaridan biri Ahmad Lutfiy Qozonchidir. O'zbek xalqiga o'zining “Saodat asri qissalari”, “O'gay ona”, “Qaynona” kabi badiiy, diniy asarlari bilan tanish bo'lgan yozuvchi 1936-yili Turkiyaning Churum tumanida tavallud topgan. Dastlab boshlang'ich maktabda tahsil olgan. Keyin “Imom-Hatib” litseyini shu tumanda bitirgan.

Ahmad Lutfiy Qozonchining har bir asari o'zining diniy-tarbiyaviy jihatlari bilan ajralib turadi. Uning o'ziga xos yozish uslubi bo'lib, asarlarida kuchli ziddiyatlar, o'tkir kulminatsion nuqtalari mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Hatto ba'zi ayrim adabiyot tanqidchilari uning asarlarini badiiy jihatdan past baholagan [1/6]. Shunga qaramasdan yozuvchining o'ziga xos shinavanda kitobxonlari talaygina. Ko'plab o'quvchilar tomonidan juda iliq kutib olinadi. Adibning asarlari yana shunisi bilan qiziqarliki, uning asarlarini bemalol oilaviy davrada mutolaa qilish mumkin. chunki ularda ba'zi asarlardagi kabi sevgi, muhabbat mojarolari, o'ldim-kuydim kabilar va ba'zi oilaviy munosabatlar tasvirlanmagan. Asosan tarbiyaviy jihatining kuchliligi uchun ham yosh kitobxonlarga bemalol tavsiya qilinsa bo'ladi. aynan shu kabi har biz qiz, ayol uchun odob jihatidan kuchli asarlaridan biri “O'gay ona” romanidir.

Ahmad Lutfiy Qozonchining ushbu asari xronikali syujetda yozilgan asarlar sirasiga kirib, kuminatsiyasi mavjud emas. Ammo asardagi personajlarning badiiy

jihatdan tasvirlanishi, voqealarning xronologik izchilligi mohirona yozilgan. “Asarning bosh qahramoni 19 yoshli Fotima ismli qiz barcha qizlar, qolaversa, barcha onalar uchun ibrat bo‘luvchi inson qilib tasvirlangan. Ikki farzandli erkak kishidan sovchi kelishiga qaramay, unga rozilik bildirishi uning oila a‘zolari, qarindoshlari va, tabiiyki, kitobxonni ham o‘ylantirib qo‘yadi. Buning sababi shuki, qo‘shnisi Ismoil ismli bolaning 3 yoshida o‘z onasidan ayrilib, o‘gay ona qo‘lida qiynalganligi, zulm ko‘rganligi edi” [6/92]. Romanning bosh sahifalarida o‘gay ona sifatida tasvirlangan Sanihaxonimning yosh Ismoilga qilgan munosabati chindan ham achinarli edi. Ayniqsa, Ismoilni arzimagan voqea sabab nohaq “...yer yutkur...” deya haqorat qilishi achinarli hol albatta. Yozuvchi Sanihaxonim personaji orqali hozirgi kundagi ayrim o‘gay onalarning asl yuzini ochib beradi. Ismoilning otasini esa beparvolikda ayblash ham mumkin. Ushbu ayblovni Ismoilning quyidagi so‘zlari ham ochib berishi mumkin: “Otam meni yaxshi ko‘rmaydi-ku... Kechasi tizzalariga o‘tirmoqchi bo‘lgandim, onamga qaradi, keyin meni nari itardi...”. Ayniqsa, Ismoilning o‘z onasi qabri yonidan qabr qazib har kun borib birga yotishi inson qalbini larzaga solidi. U shu qadar o‘gay ona zulmidan bezor bo‘lgan ediki, ushbu holati orqali u o‘zini huddi tirik o‘lik kabi his etayotganing anglashimiz mumkin. O‘gay onasi Ismoilning o‘z onasidan qolgan kiyimini ham yashiradi. Nega axir? Yosh go‘dak nahot o‘z onasi kiyimiga ham nazar tashlolmasa? Fotima esa shu kabi holatlarni takrorlamaslik uchun ham, ikki bola o‘zganing qo‘liga tushsa Ismoildek azob chekmasligini istagani uchun ham rozi bo‘ladi. bu esa uning matonati naqadar kuchli ekanligini ochib beradi.

Fotimaning ajoyib odati bor edi, ro‘molini hatto dugonalari oldida ham yechmas edi. Yozuvchi uning bu ishi orqali unda qizlik iffatini yuqori darajada himoyalovchi oqila muslimani ochib bergan. Fotimaning shu kabi go‘zal xulqiga monand juftni ham juda chiroyli tasvir lay olgan: “Odilbek namozxon, xushfe‘l, xushbichim, fayzli bir inson edi”. Juda oddiygina tasvir bilan boshlagan bo‘lsada, uning keyingi bajargan ishlari orqali uni Fotimadek oqila ayolga mos ekanligini anglab olsa bo‘ladi.

Romandagi kompozitsion syujetga katta e‘tibor qaratilganligi, voqealarning bir-birini to‘ldirib borishidan ham tushunsa bo‘ladi. Dastlabki voqealar rivoji Ismoil va uning oilasidan boshlanadi va aynan ushbu personaj orqali Fotimaning jasorati yuzaga chiqarib berilgan. Keying voqealar 19 Yoshli Fotimaning oilasining so‘zlariga qaramasdan ikki yetim bolaning boshini silash uchun turmushga chiqishi va hamma voqealar tushmudan keyin boshlangan. Xalqimizda bir maqol bor: “Erni er qiladign ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin”. Bu bilan nima demoqchiman, Fotima Odilbekning oilasiga qadam bosar ekan biror marta shikoyat qilmaydi. Bir yaxshiligini

o'n qilib ko'rsatadi. Ayniqsa Odilbekni Qur'on tilovatiga chorlashi juda ham quvonarli. Vaqtlar o'tgandan so'ng o'zi ham qiz farzandni dunyoga keltiradi, lekin biror marta ham o'z farzandini Odilbekning sobiq xotining farzandaridan ajratmaydi, aksincha, ularni bir-birlariga yanada yaqinlashtiradi. Katta farzandi Husaynni Imom-hatib maktabida o'qitadi. Ikki qizalog'i Odila va Samixani ham o'zi kabi oqila, iboli qizlar qilib tarbiyalaydi. Husayn va Odilaga doimo o'z onalari haqiga duo qildiradi. Eng quvonarli jihati, ularga o'z onasini o'zining yaqini sifatida tanishtiradi. Hatto Odilbekka ham shunday ta'kidlaydi, uni ham sobiq ayoli haqiga duo qilishga undaydi. Husayn katta bo'lgandan so'ng unga bor haqiqatni aytadi. Husayn o'z onasimi yoki yo'qligini ajrataa olmay qoladi, chunki Fotima ularga juda ham go'zal tarbiya va mehr berganidan o'z onasi emasligini ham bilolmay qoladi. Asar voqealari yakunlanib borar ekan, voqealar so'ngida romanning boshlanishida uchragan personaj yana namoyon bo'ladi. Fotima katta qizini Ismoilga uzatadi. Ikkinchi qiziga ham shunday kuyov nasib qilishini chin yurakdan niyat qiladi. Shu tariqa asar voqealari o'z nihoyasini topadi.

DISKUSSIYA

“Badiiy asarning mazmun-mohiyati uning shakli orqaligina fahmlanadi. Shakl mazmunning muhim xususiyatidir: badiiy asarda hayot obrazlarda, obrazli tafakkur orqali o'z aksini topadi”, - deya ta'rif keltirib o'tadi Ko'chimov U. o'z darsligida. Bundan ma'lumki, badiiy asar mazmunini tushunish uchun uning ifoda shaklini, ya'ni obrazlar tizimini va badiiy tafakkur usullarini anglash muhimdir. “... badiiy asardagi g'oya turmush hodisalari ustidan chiqarilgan oddiy mantiqiy xulosa emas, balki hayotni bevosita mushohada qilish, sinchiklab tadqiq etish va obrazli, emotsional ifodalash yakunidir. Bu yakun badiiy asar organizmining har bir hujayrasiga singib ketgan boiadi. Shu sababli badiiy asardagi g'oyani faqat shu asarning butun obrazlari mazmuni orqaligina anglash mumkin. L.Tolstoy ta'biri bilan aytganda, har bir badiiy asarning g'oyasini ifoda etish uchun u qanday yozilgan bo'lsa, shunday qayta yozib chiqish kerak bo'ladi»(I.Sulton, 170-bet.) xulosa qilib aytganda badiiy asarning g'oyasi undagi obrazlar, voqealar va san'atkorona ifoda orqali tushuniladi. Uni qisqacha mantiqiy xulosa sifatida ifodalash mumkin emas, balki butun asar mazmunini his qilish va anglash orqali idrok etish lozim.

Ahmad Lutfiy Qozonchining O'gay ona romani oilaviy munosabatlar va tarbiya masalalariga urg'u bergan bo'lsa-da, uning badiiy yondashuvi nisbatan soddaligi bilan ajralib turadi. Asarda dramatik sahnalar yoki qahramonlarning chuqur psixologik tahlili yetarli darajada chuqur ochib berilmagan. Shu sababli, roman o'quvchida kuchli hissiy ta'sir uyg'otmaydi, balki kundalik hayotiy holatlar asosida oilaviy munosabatlar

haqida mulohaza yuritishga undaydi. Lekin asardagi tarbiyaviy jihatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Chin muslima ayol, ona obrazini yuqori iste'dod bilan yoritib, o'quvchida havasni uyg'ota oladi.

Asar syujeti asosan an'anaviy oilaviy voqealarga asoslangan bo'lib, unda ijtimoiy muammolar yoki keng qamrovli adabiy konsepsiyalar kamroq aks ettirilgan. Bu esa uni boshqa o'xshash mavzudagi asarlar bilan solishtirganda ancha sodda va oson o'qiladigan roman sifatida qabul qilishga olib keladi. Biroq, roman oilaviy muhitning bolaning shakllanishiga ta'siri, mehr-muhabbat va adolatning o'rni kabi mavzularni yoritishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Bu jihatdan uni tarbiyaviy ahamiyatga ega asar sifatida baholash mumkin. Umuman olganda, O'gay ona romanining badiiy qiymati haqida juda ko'p bahslashish mumkin. U o'zining oddiyligi va hayotiyliigi bilan o'quvchini oilaviy munosabatlar haqida o'ylashga undaydi, biroq syujetning rivojlanishi va qahramonlarning ichki kechinmalari yanada chuqurroq ochilganida, asarning ta'siri kuchliroq bo'lishi mumkin edi.

XULOSA

Ahmad Lutfiy Qozonchiyning O'gay ona romani oilaviy munosabatlar, tarbiya va insoniy munosabatlarning jamiyatdagi o'rni haqida fikr yurituvchi asarlardan biridir. Muallif oddiy hayotiy voqealar orqali oiladagi mehr-muhabbat va adolatning inson taqdiriga qanday ta'sir qilishini ko'rsatishga harakat qilgan. Asarda syujet nisbatan sodda bo'lsa-da, uning asosiy g'oyasi o'quvchini oilaviy qadriyatlar haqida o'ylashga undaydi. Romanning muhim jihatlaridan biri – undagi realistik yondashuvdir. Muallif ortiqcha drammatizatsiya yoki murakkab psixologik tahlillarga berilmaydi, balki hayotning o'ziga xos oddiy voqealarini tasvirlash orqali o'quvchiga tanish bo'lgan muammolarni yoritadi. Biroq, aynan shu jihat ba'zi o'quvchilar uchun asarning ta'sirini susaytirishi mumkin, chunki unda chuqur kechinmalar yoki keskin konfliktlar kam uchraydi. Badiiy vositalar jihatidan qaralganda, roman o'z uslubining soddaligi bilan ajralib turadi. Obrazlar jonli, ammo ba'zan yuzaki tasvirlangan, ularning ichki dunyosi haqida ko'proq ma'lumot berilsa, asar yanada kuchliroq bo'lishi mumkin edi. Shu bilan birga, o'gay ona obrazi an'anaviy qattiqqo'l va mehrsiz ayol sifatida tasvirlangan bo'lib, uning bunday fe'l-atvorga ega bo'lishining sabablariga chuqurroq e'tibor qaratilmagan. Agar bu jihat yanada rivojlantirilganida, asarning badiiy qiymati oshgan bo'lar edi.

Umuman olganda, O'gay ona romani oilaviy munosabatlar va insoniy qadriyatlarni yoritishi bilan muhim asarlardan biri sanaladi. U o'quvchiga mehr-

muhabbatning hayotdagi oʻrni, adolatsizlikning inson ruhiyatiga taʼsiri haqida oʻylash imkonini beradi. Garchi asar juda dramatik yoki murakkab syujetga ega boʻlmasa ham, undagi oddiy va hayotiy hikoya har bir kishiga tanish boʻlishi mumkin boʻlgan holatlarni aks ettirgani bilan ahamiyatlidir. Bu jihatdan uni tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatga ega asar sifatida baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eng sara asarlari: Ahmad Lutfiy Qozonchi. – Toshkent: “Book Media Nashr”, 2023. – 7-176
2. Adabiyotshunoslik: darslik / Toʻrayev B., Koʻchimov U. – Toshkent: “MALIK PRINT CO”, 2022. – 44
3. Mushohada yogʻdusi. Ibrohim Haqqul: adabiy oʻylar, hikmatlar, lutflar. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 95
4. Adabiyot nazariyasi. Izzat Sulton: Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. “Oʻqituvchi” nashriyoti. – Toshkent, 1980. – 170
5. Adabiyotshunoslik asoslari: darslik / Toʻxta Boboyev. – Toshkent: “OʻZBEKISTON” – 2022. – 108-115
6. Ahmad Lutfiy Qozonchining “Oʻgar ona” asarida oʻgay ona obrazi takomili: Toʻrabekova M. – Central Asian Academic Journal of scientific research – vol. 2. Issue 1. 2022. – 91-92